

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



**“DINSHUNOSLIK”
FANINING
O‘QUV DASTURI**

**Ta’lim
yo‘nalishi:**

Barcha nomutaxassis yo‘nalishlar talabalari uchun

Toshkent – 2024

Fan/modul kodi DI1404		O'quv yili 2024-2025	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Dinshunoslik	60	60	120	
2.	I. Fanning mazmuni. Dinshunoslik turli dinlar, diniy institutlar, urf-odatlar va muqaddas matnlarning tarixiy, falsafiy va ijtimoiy mohiyati haqidagi fan bo'lib, unda, diniy matnlarning mohiyatini tushunish, diniy bilimlardan inson qalbining pokligini ta'minlash maqsadida foydalanish, shuningdek diniy e'tiqod bilan bir qatorda amaldagi konstitutsion boshqaruv tizimini hurmat qilish va qonun ustuvorligini ta'minlash madaniyatini shakllantirish o'rganiladi. Dinshunoslik fani barcha soha mutaxassislarining iymon butligi, vijdon pokligini ta'minlashga, dunyoviy va diniy bilimlarning mutanosibligiga erishish, yurt tinchligini saqlashda dahldorlik tuyg'sini shakllantirishga xizmat qiladi. Fanni o'qitishdan maqsad – talaba-yoshlar tafakkurida dinning mohiyati, dunyoning diniy manzarasi, diniy va falsafiy qarashlarning o'zaro bog'liqligi, globallashuv jaryonlarida diniy mutaassiblik, aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmning davlat va jamiyat xavfsizligiga salbiy ta'sirini bilish va unga qarshi kurashishda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi – diniy ta'limotlarning tarixi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish, dinning asl mazmuni bilan uning soxta talqinlarini farqlash malakasini shakllantirish; diniy mutaassiblik va aqidaparastlikning mazmunini tushunturish va unga qarshi kurashda egallangan nazariy bilimlarni amaliy hayotda qo'llash, ekstremizm va terrorizmning paydo bo'lish sabablarini aniqlash va uning oqibatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish; diniy va dunyoviy jarayonlarga tanqidiy tafakkur nuqtai nazardan yondashuvni shakllantirish; talabaning mustaqil ta'lim olish jarayonida din tarixi, milliy va dunyoviy dinlar rivoji, diniy qadriyatlar haqida egallangan bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) 1-modul. DINSHUNOSLIK 1-mavzu. Dinshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari Din ijtimoiy ong shakli, turmush tarzi, tafakkur uslubi va ma'naviy qadriyat sifatida. Dinni o'rganuvchi fan sohalar: dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, uning predmeti, funksiyalari, kategoriyalari. Dinning mohiyati. Dindorlik va taqvodorlikning o'zaro aloqasi va farqi. Dinning strukturasi va funksiyalari. Dinning turlari: politeizm, monoteizm va genoteizm. Dinlarning tarixiy shakllari: ibtidoiy din, milliy dinlar va jahon dinlari. Dinning jamiyat va shaxs ma'naviyati yuksalishi, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati.				

2-mavzu. Milliy dinlar

Milliy dinlarning ta'rifi. Hindiston milliy dinlari: vedalar, upanishada, braxmanizm va hinduilik. Jaynizm va sikhizm ta'limotlari. Xitoy milliy dinlari: konfutsizm va daosizmning mohiyati. Yapon milliy dini sintoizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Yahudiylilik milliy dinining tarixi, muqaddas matnlari, teologik asoslari va marosimlari. Tangrichilik e'tiqodi va zardushtiylik ta'limotining mohiyati. Avesto muqaddas manbasidagi g'oyalarning tarbiyaviy ahamiyati. Milliy dinlarning milliy ong va milliy o'z o'zini anglashdagi o'rni.

3-mavzu. Buddizm dini tarixi va asosiy g'oyalari

Buddaviylilikning jahon dini sifatidagi maqomi. Buddaviylilikning paydo bo'lish tarixi va uning asoschisi. Tripitaka buddaviylilikning muqaddas manbasi. Buddabiylik talimotlarida olam va inson haqidagi g'oyalar. Maxayana, nixayana, lamaizm va dzen buddaviylilik ta'limotlari. Buddaviylilikning Markaziy Osiyo kirib kelishi. An'anaviy buddaviylilikning rivojlanishi. Chan buddizmning madaniy hayotga ta'siri. Modern buddaviylilikning o'ziga xos xususiyatlari. Global buddaviylilik va uning yo'halishlari. Buddabiylik go'yalarining tarbiyaviy ahamiyati.

4-mavzu. Xristian dini tarixi va asosiy g'oyalari

Xristianlikning jahon dini sifatidagi maqomi. Xristianlikning paydo bo'lishi va tarqalishi. Xristianlikning muqaddas kitobi. Xristianlikning ta'limoti, marosimlari va bayramlari. Xristianlikning asosiy yo'nalishlari: katolitsizm g'oyalarining o'ziga xos xususiyatlari. Pravoslavlik dinining mohiyati. Protestantlik dinining shakllanishi va rivojlanishi. O'zbekistonda xristian dinining tarixi va hozirgi zamon. Xristian dinida inson tarbiyasiga oid g'oyalarning ijtimoiy ahamiyati.

5-mavzu. Islom dini tarixi va mohiyati

Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sharoitlar. Islomgacha bo'lgan diniy e'tiqod va tasavvurlar. Xaniflar harakati. Arabiston yarim orolidagi diniy manzara. Islom dini muqaddas manbalari. Tafsir ilmi. Islom dini ta'limoti. Islomda amallar tasnifi. Movarounnahrda islom dinining tarqalishi va madrasa ta'limi shakllanishining ijtimoiy madaniy hayotga ta'siri. Hozirgi davrda islom sivilizatsiyasining ahamiyati.

6-mavzu. Islom dini manbalari, aqidaviy maktablari va ularning hozirgi davrdagi ahamiyati

Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi. Qur'on, sura va oyat tushunchalarining ma'nosi, qur'onshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi. Hadis tushunchasining mohiyati, hadislarning turlari va tasnifi. Buyuk muhaddislarning hayoti va ijodi. O'zbekistonda hadisshunoslikning rivoji. Sunniylik va Shialik yo'nalishlarining paydo bo'lishi va ular e'tiqodidagi farqlar. Moturidiylik va ash'ariylik maktablari. Kalom falsafasi. Esxatologiyaning mohiyati: qiyomat va oxirat dunyosi. Noan'anaviy e'tiqodlar: xorijiya, mu'taziliya, qarmatiya harakatlari.

7-mavzu. Islom fiqhiy maktablari

Ilk islomiy fiqhiy maktablarining shakllanish tarixi va ularning tasnifi. Hanafiya, molikiya, shofe'iya, xanbaliya mazhablarining asosiy g'oyalari va fiqhiy dalillash

metodlari. Shariat kategoriyalari: halol, mandub, muboh, makruh, harom. Qozi mahkamalarining islom huquqini ta'minlashdagi o'rni. O'rta asrlarda fiqh ilmining rivojlanishida Movarounnahr faqihlarining o'rni. Burhoniddin Marg'inoniyning "Al-Hidoya" asarining fiqh ilmi rivojidagi ahamiyati.

8-mavzu. Tasavvuf ta'limotining Sharq madaniyatiga ta'siri

Tasavvuf ta'limotining shakllanish tarixi, mohiyati va asosiy g'oyalari. Tasavvuf ta'limotida Qur'ondagi nafs tarbiyasi, zuhd va zohidlikka oid g'oyalarining rivojlantirilishi. Tasavvuf ta'limotida ilohiy ishq g'oyasining mohiyati. Ilk tasavvuf adabiyotlarining talqini. Islomda avliyo tushunchasining sharhi. Yusuf Hamadoniy ta'limoti, Kubroviya, Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlarining ijtimoiy ahamiyati. Tasavvufning badiiy adabiyotga ta'siri. Tasavvufda ruhiy tarbiya bosqichlari va maqom. Zamonaviy tasavvuf tariqatlari.

9-mavzu. Islom qadriyatlari va ma'rifatining hozirgi davrdagi ahamiyati

Islom dinida ijtimoiy tenglik, adolat, bag'rikenglik va vatanparvarlik g'oyalarining mohiyati. Islom inson huquqlari haqida. Shariat muxofazasidagi besh qadriyat: din, hayot, aql, mulk va nasl. Islomda atrof muhitni muhofaza qilishning ustuvor yo'nalishlari. Islom dini nikoh va oilaviy munosabatlar, er-xotinning huquq va majburiyatlari haqida. Islomda ota-onalarga hurmat va farzand tarbiyasidagi mas'uliyat g'oyalari. Islom dini axloqiy qadriyatlar haqida. Islomda do'stlik, o'zaro hurmat va sog'lom turmushning targ'iboti. Islomda fan va ta'lim, madaniyat va san'atga munosabat. Islom manbalarida tinchlik, yaxshi qo'shnichilik va ilm-ma'rifatning talqini. Islom arxitekturasini. Makka va Madina shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va ibodat marosimlari. Islom dinining jahon sivilizatsiyasi rivojidagi o'rni. XXI asrda O'zbekiston ulamolari tomonidan tinchlik, ilm-ma'rifat va bag'rikenglikka oid adabiyotlar tahlili.

2 – modul. ZAMONAVIY DINIY HARAKATLAR VA OQIMLAR

10-mavzu. Yangi diniy ta'limotlar va sektalar

Yangi diniy harakatlar paydo bo'lishining sabablari va yo'nalishlari. Bahoiylik va qodiyoniylik (ahmadiylik) harakatlari. Xalqaro Krishnani anglash jamoasi va baxshillochilar jamoasining maqsadlari. Yangi xristianlik harakatlarining yo'nalishlari. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan norasmiy diniy jamoalarning faoliyati. Sekta tushunchasining mohiyati va unung yo'nalishlari. Cherkov va sekta faoliyatidagi farqlar. Zamonaviy diniy sektalar va ularning barqaror taraqqiyot maqsadlariga salbiy ta'siri.

11-mavzu. Kiber makonda din. Missionerlik va prozelitizmning ijtimoiy-siyosiy xavfi

Kiber makon, kiber zo'ravonlik (cyberbullying), kiber xavfsizlik tushunchalarining mohiyati. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yurituvchi ekstremistik jamoa va shaxslarning ijtimoiy hayotga salbiy ta'siri. Hozirgi davrda virtual diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati. Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. Xalqaro missionerlik tashkilotlarining faoliyati yo'nalishlari,

ularning targ'ibot usullari. Missionerlik targ'boti usul va vositalarning zamonaviylashuvi. Diniy manipulyasiyaning inson ongiga ta'siri. Kiber makonda missionerlik va prozelitizmning ma'naviy barqarorlikga tahdidi hamda ularni bartaraf etishning mexanizmlari. Kiber xavfsizlik usullari.

12-mavzu. Diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizm, terrorizmning tarixi va ularning hozirgi davrda xavfsizlikga tahdidi

Diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzutilgan diniy ekstremistik harakatlarning maqsadlari. Terrorizmning mohiyati va uning shakllari. Din niqobidagi terrorizm amaliyotining oqibatlari. Xalqaro diniy terroristik guruhlar – al-Qoida, Ixvanul muslimin, ISHID, Boko xaram, tolibonlar tashkilotlarining xavfsizlikga tahdidi. O'zbekistonda sodir etilgan terroristik harakatlar va ularning barqaror taraqqiyotga ta'siri. Turkiston islom harakati, akromiylar, soxta salafiylik, vahobiylilik, xizbut tahrir va nurchilik harakatlarining paydo bo'lish tarixi, ularga islom tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar. O'zbekistonda radikal oqimlarga qarshi kurashning yo'nalishlari va huquqiy asoslari.

3-modul. O'ZBEKISTONDA DINIY KONFESSIYALAR VA TASHKILOTLARNING YO'NALISHLARI

13- mavzu. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar

Sovet O'zbekistonida dinga munosabatning asosiy jihatlari. O'zbekiston musulmonlar idorasining tashkil etilish tarixi va ahamiyati. Xalqaro islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi faoliyatining maqsadi va vazifalari. Diniy tashkilotlarning zamonaviy dunyoviy me'yorlarga moslashuvi va jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. O'zbekiston Prezidentining BMTning 72 sessiyasida diniy bag'rikenglik rezolyusiyasini qabul qilish haqidagi taklifining ijtimoiy siyosiy ahamiyati. Dunyo mamlakatlari va O'zbekiston konstitutsiyasida vijdon erkinligi huquqining mohiyati. O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonunning qabul qilinishi tarixi va uning ahamiyati. Vijdon va e'tiqod erkinligi tushunchalarivning ta'rifi. Diniy ta'limotlarning vijdon erkinligiga munosabati. Konfessiya tushunchasining mohiyati. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiylarning tasnifi va konfessional jarayonlarning asosiy yo'nalishlari. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishning tiplari. (Identifikatsion, separatsion va kooperatsion modellar).

14-mavzu. Xalqaro diniy tashkilotlar faoliyatining tarixi va ularning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ahamiyati

Xalqaro diniy tashkilotlar faoliyatining yo'nalishlari. Islom hamkorlik tashkiloti, islom konferensiyasi tashkiloti, fan, ta'lim va madaniyat bo'yicha islom tashkiloti. Arab davlatlari ligasining maqsadi. Islomiy banklar faoliyatining yo'nalishlari. Global terrorizmga qarshi global hamkorlikning yo'nalishlari. BMTning global antiterror strategiyasining asosiy yo'nalishlari: terrorizmning tarqalishiga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar, inson huquqlari va qonun ustuvorligiga umumiy hurmatni ta'minlash. Shanxay hamkorlik tashkiloti va mintaqaviy antiterror tuzulmasi faoliyatining yo'nalishlari. O'zbekistonning

terrorizmga qarshi kurash tajribasi. O'zbekistonda «Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasining diniy terrorizmga qarshi kurashdagi ahamiyati. Geosiyosiy jarayonlarda din omili. Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashining barqaror taraqqiyotni ta'minlashdagi roli.

15-mavzu. Dun'yoviy va diniy bilimlar mutanosibligini ta'minlashning ahamiyati

Yangi O'zbekistonda dunyoviy va diniy ta'lim va tarbiyaning yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida diniy ta'limni tashkil etishning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, diniy ta'limning g'oyalari va usullari. O'z-o'zini boshqarish organlarida (mahalla) diniy ta'lim va tarbiyani tashkil etishning ahamiyati. Ibodat va diniy marosimlarning shaxs kamolotidagi roli. Dinda axloqiy qadryatlar va me'yorlar dialektikasi. Diniy poklanish - katarsisning ijtimoiy psixologik mohiyati. Raqamlashgan sivilizatsiya davrida diniy e'tiqodni tarbiyalash va diniy matnlarni o'qishda xolislikni ta'minlashning zarurati. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag'rikenglikning shaxs kamoloti va e'tiqod erkinligini taminlashdagi roli. O'zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarni o'rganishning ahamiyati. Dun'yoviy va diniy bilimlar mutanosibligiga erishishda sekulyarlashuvning o'rni. Sekularizatsiyaning jahon dinlariga ta'siri va barqaror taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rni. Dunyoviy hayot va diniy qadryatlarning mutanosibligiga erishishning yoshlar tarbiyasiga ta'siri.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Dinshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
2. Milliy dinlar
3. Buddaviylik dini tarixi va g'oyalari
4. Xristianlik dini tarixi va g'oyalari
5. Islom dini tarixi va mohiyati
6. Islom dini manbalari, aqidaviy maktablari va ularning hozirgi davrdagi ahamiyati
7. Islom fiqhiy maktablari
8. Tasavvuf ta'limotlarining Sharq madaniyatiga ta'siri
9. Islom qadriyatlari va ma'rifatining hozirgi davrdagi ahamiyati
10. Yangi diniy ta'limotlar va sektalar
11. Kiber makonda din. Missionerlik va prozelitizmning ijtimoiy- siyosiy xavfi
12. Diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizm va terrorizmning tarixi va hozirgi davrda xavfsizlikga tahdidi
13. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar
14. Xalqaro diniy tashkilotlar faoliyatining tarixi va ularning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ahamiyati
15. Dun'yoviy va diniy bilimlar mutanosibligini ta'minlashning ahamiyati

Seminar mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalardan bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. "Sharq mutafakkirlarining islom dinning inson kamolotiga ta'siri haqidagi go'yalari" mavzusida esse tayyorlash
2. G'azzoliyning Tavba asari asosida "Din va axloq" mavzusida esse tayyorlash
3. "Din va hurfiylik" mavzusida prezentatsiya tayyorlash (Berdyayevning diniy hurfiylik haqidagi g'oyalarini G'azzoliy g'oyalari bilan qiyoslash)
4. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik mavzusida krossvord tayyorlash
5. O'zbekistonda konfessiyalararo diniy bag'rikenglikning tarixiy tajribasi mavzusida test tayyorlash.
6. Imom Buxoriyning "Al-Adab al-mufrad" asarini konspektlashtirish va esse tayyorlash
7. Abu Homid G'azzoliyning "Mukoshafatul qulub" asari bo'yicha esse tayyorlash
8. Abdurauf Fitratning "Muxtasar islom tarixi" risolasi bo'yicha krossvord tayyorlash
9. Abdulla Avloniyning komil inson haqidagi qarashlari mavzusida esse tayyorlash
10. Islomda inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishining o'ziga xos jihatlari mavzusida 10 ta kazu savol tayyorlash.
11. Lev Tolstoyning "Iqronoma" asaridagi diniy e'tiqodlarni tahlil etish
12. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Baxtiyor oila" asarida islom qadriyatlarining talqini mavzusida taqdimot tayyorlash
13. Islom huquqshunosligida oila, nikoh, taloq, idda, ziyor tushunchalarini ta'riflash va taqdimot tayyorlash
14. Jamiyat hayotida duiyoviylik va diniylik mutanosibliqi mavzusida 10 ta kazu savol tayyorlash
15. Qohira deklaratsiyasi tarixi va mazmuni borasida tahliliy maqola tayyorlash
16. "Imom Buxoriy va Imom Termiziyning hadis ilmiga qo'shgan hissalarini qiyosiy tahlili" mavzusida prezentatsiya tayyorlash
17. Mustaqillik yillarida Qur'onning o'zbek tiliga tarjima qilinishi va tafsirlari haqida taqdimot tayyorlash
18. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik mavzusida krossvord tayyorlash
19. Talabalar bilan O'zbekistondagi diniy tashkilotlarga borish (viloyatlar doirasida masjid, madrasa, ma'had, cherkov, sinagoga va boshqalar)
20. Talabalar bilan diniy savodxonlik bo'yicha suhbatlar, zakovat o'yinlari va boshqa ma'rifiy tadbirlar tashkil etish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan esselar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- dinning mohiyati, jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni, diniy e'tiqodga ega bo'lgan insonlar dunyoni qanday tushunishlari, dunyoviy va diniy bilimlarning mutanosibliqi, din va fanning o'zaro aloqasi, diniy va dunyoviy ta'limning maqsadlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;

	• dinshunoslik fanini o'rganish orqali talabalar turli dinlarning mohiyati, ularning urf-odatlar va e'tiqodlari orasidagi farq va umumiylik, diniy va dunyoviy bilimlarning insonlarning bag'rikengligi va o'zaro hurmatini tarbiyalashdagi o'rni, milliy va jahon dinlari, e'tiqodlari va urf odatlari, an'analari, diniy-axloqiy g'oyalarning tahlili, dinshunoslik asosiy tushunchalari xudo, payg'ambarlar, inson, taqdir, oxirat, iymonning mohiyati, buddaviylik dini tarixi va inson tarbiyasiga oid g'oyalari, xristian dini g'oyalarining insonning ma'naviy va axloqiy kamolotini tarbiyalashdagi roli, islomning sunniylik, shialik va xavorijlar yo'nalishlarining mohiyati, kalom ilmining shakllanishi va tasavvuf ta'limotining mohiyatini bilishi va ulardan foydalana olishi; • sekularlashuv jarayonlarni tushunish, turli dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar bilan umumiy murosa qilish, ular bilan muloqot qilish madaniyati; din nomi bilan sun'iy bog'langan ma'naviy tahdidlar, axborot xurujlariga qarshi kurashish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlarda (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javob) • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Jalilov B. Dinlar falsafasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Noshir, 2019. –148 b. 2. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2021. –128 b. 3. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent: «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b. 4. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «O'FMJ» nashriyoti, 2018. – 304 b. 5. Shermuxamedova N.A.Diniy fanatizm fenomeni/Inson falsafasi. – Darslik. – Toshkent: Innovasiya-Ziyo, 2021. – B. 314-499. Qo'shimcha adabiyotlar 6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 b. 7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. 8. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon. –Toshkent: O'zbekiston, 2019. 9. Abu Xomid G'azzoliy Kime'i saodat//Ikki dunyo saodatiga eltuvchi bilim. –

	Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019. 10. Rumi J. Yetti majlis. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. 11. Rumi J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharx. –Toshkent: Navruz, 2019. 12. Saifnazarov I., Sultonov T., Ilhomjonov L., Xalimmetova R. Dinshunoslik.o`quv qollanmasi. –Toshkent: TDIU, 2019. – 180 b.</p> <p>13. Yassaviy Xoja Axmad Devoni xikmat. –Toshkent: Navro`z, 2018 14. Islomov Z., Haydarov I. Xristianlik: ibodatxona, ibodat va marosimlari. – Toshkent: Qaqnus nashriyoti, 2020. 15. Farfiyev B. O`zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida islom ratsionalizm omili. – Toshkent: O`FMJ nashriyoti, 2019. Axborot manbalari 16. www.ziyonet.uz. 17. www.edu.uz. 18. www.google.uz. 19. www.gov.uz.
7.	Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston milliy universiteti O`quv jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etish boshqarmasining 2024 yil ____dagi ____sonli bayonnomasi bilan ma`qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas`ullar:</b></p> <p><b>Shermuxeamedova N.A.</b> – O`zMU “Falsafa va ma`naviyat asoslari” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, professor</p> <p><b>Jalilov B.J.</b> – O`zMU “Falsafa va ma`naviyat asoslari” kafedrasini dosenti, falsafa fanlari nomzodi dotsent</p> <p><b>Alimova Mahfuza</b> – O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Dinshunoslik va jahon dinlarini o`rganish” YUNESKO kafedrasini mudiri, falsafa doktori PhD, dotsent</p> <p><b>Komilov D.Z.</b> – O`zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasini dosenti, falsafa fanlari bo`yicha falsafa doktori PhD.
9.	Taqrizchilar: Abdullaeva N. – O`zMU “Falsafa va ma`naviyat asoslari” kafedrasining professori f.f.d. Ziyotov Shovosil – Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazi direktori, tarix fanlari doktori DSc, professor